

Toshkent Shahridagi Turin Politehnika Universiteti Quyidagi Ixtisoslik Bo'yicha 2023 Yil Uchun Tayanch Doktoranturaga Qabul E'lon Qiladi

Shifr: 05.08.06

Ixtisoslik: "G'ildirakli va gusenitsali mashinalar va ularni ishlatish",

Kvota: 2

Shifr: 05.01.08

Ixtisoslik: "Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni avtomatlashtirish va boshqarish"

Kvota: 1

Shifr: 05.09.01

Ixtisoslik: "Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar"

Kvota: 1

DOKTORANTURA

Institut tayanch doktoranturasiga quyidagi talabgorlar qabul qilinadi:

- – magistr darajasiga, oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom (mutaxassislik dasturlari bo'yicha) ega bo'lganlar;
- – falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun

dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo'lgan ilmiy natijalar, shu jumladan ilmiy jurnallarda chop yetilgan kamida bitta maqola hamda tegishli yo'nalishlar bo'yicha ikkitadan kam bo'lmagan ilmiy ishlar to'plamlariga kiritilgan ma'ruza tezislariga ega bo'lganlar;

Tayanch doktoranturada o'qishga talabgorlar quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

- – ariza;
- – qisqacha biografik ma'lumotnoma;
- – mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun);
- – oliy ta'lim muassasasi magistraturasi diplomi, oliy ma'lumot (mutaxassislik dasturlari bo'yicha) to'g'risidagi diplom nusxasi;
- – nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek ularning nusxalari (dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo'lgan ilmiy jurnallarda chop etilgan kamida bitta maqola hamda tegishli yo'nalishlar bo'yicha ikkitadan kam bo'lmagan ilmiy ishlar to'plamlariga kiritilgan ma'ruza tezislariga ega bo'lish talab etiladi);
- – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasi sohiblari tegishli hujjat nusxasini taqdim etadilar.

Tayanch doktoranturada o'qish uchun talabgorlar mutaxassislik va chet tili (ta'limning oldingi darajalarida o'rganilgan xorijiy til) bo'yicha kirish imtihonlarini topshiradilar. Talabgorlarda IELTS (o'rtacha balli kamida 5.5), TOEFL (PBT) (567 balldan kam bo'lmagan), TOEFL (IBT) (87 balldan kam bo'lmagan), SEFR (B2 darajadan past bo'lmagan) bo'yicha tasdiqlovchi amaldagi xalqaro malaka sertifikatlari mavjud bo'lganda chet tilidan topshiriladigan imtihondan ozod etiladi.

Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi uchun mustaqil izlanuvchilikka quyidagilar rasmiylashtiriladi:

- – magistr diplomi yoki oliy ma'lumot to'g'risidagi (ixtisoslik bo'yicha) diplomga ega bo'lganlar;
- – falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo'lgan ilmiy natijalar, shu jumladan, ilmiy jurnallarda chop etilgan kamida bitta maqola hamda tegishli yo'nalishlar bo'yicha ikkitadan kam bo'lmagan ilmiy ishlar to'plamlariga kiritilgan ma'ruza tezislariga ega bo'lganlar.
- – kamida ikki yillik ilmiy-pedagogik ish staji yoki muayyan ilmiy yutuqlar (ixtiro uchun patentlar yoki mualliflik guvohnomalari)ga ega bo'lganlar.

Hujjatlar ro'yxatdan o'tgandan so'ng <https://phd.mininnovation.uz/> veb-saytiga yuklanishi kerak. BU ZARUR!

Shuningdek, hujjatlaringizni arxiv sifatida o.karpova@polito.uz manziliga "Bazaviy doktoranturaga qabul" mavzusi bilan jo'natish lozim.

Hujjatlarni topshirish muddati: 2022-yil 15-oktabrgacha.